



KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISH MASALALARI

THE USE OF FINANCIAL INSTRUMENTS IN ENHANCING ENTERPRISE COMPETITIVENESS

¹**Abdumurotov Shohruh
Shavkat o'g'li**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Soliqlar va soliqqa tortish"
kafedrası dotsenti, PhD. **G-mail:** abdumurotov0095@gmail.com
ORCID: 0009-0003-7415-2023

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada korxonalar raqobatbardoshligini oshirish jarayonida moliyaviy vositalardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kreditlash, lizing, faktoring, investitsiya qarorlarini qabul qilish, kapital tuzilmasini shakllantirish hamda pul oqimlarini samarali boshqarish kabi moliyaviy vositalarning korxona raqobatbardoshligiga ko'rsatadigan ta'siri tizimli ravishda o'rganiladi.

Eng. - This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations and practical mechanisms of utilizing financial instruments to enhance enterprise competitiveness. The study systematically examines the impact of financial tools such as lending, leasing, factoring, investment decision-making, capital structure formation, and effective cash flow management on a company's competitive position.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ raqobatbardoshlik, moliyaviy vositalar, moliyaviy boshqaruv, investitsion faoliyat, kapital, kredit, likvidlik, rentabellik.
❖ competitiveness, financial instruments, financial management, investment activity, capital, credit, liquidity, profitability.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, eng avvalo, ularning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Bozordagi raqobatning tobora kuchayib borayotgan sharoitida korxonalar barqaror faoliyatini ta'minlash va bozor ulushini kengaytirish maqsadida moliyaviy boshqaruv vositalaridan samarali foydalanmoqda. Xususan, so'nggi yillarda global moliyaviy-iqtisodiy o'zgarishlar, makroiqtisodiy beqarorliklar va pandemiya oqibatida yuzaga kelgan risklarning ortishi moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Moliyaviy vositalar – korxonaning ichki va tashqi manbalardan moliyalashtirish, investitsiyalarni yo'naltirish, kreditlash, likvidlikni ta'minlash, risklarni boshqarish, kapital tuzilmasini optimallashtirish kabi jarayonlarda qo'llaniladigan iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlar hisoblanadi. Moliyaviy vositalarning samarali qo'llanilishi korxonalarga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish, ilg'or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Milliy iqtisodiyotni

raqobatbardosh va innovatsion model asosida rivojlantirish" strategiyasi ham aynan korxonalar miqyosida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, jumladan, moliyaviy strategiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. 2023-yil yakuni bo'yicha mamlakatda faoliyat yuritayotgan yirik va o'rta korxonalarning qariyb 38 foizi moliyaviy risklarni hisobga olmasdan investitsiya kiritgani, 25 foiz korxona esa o'z likvidlik ko'rsatkichlarini nazorat qilishda yetarli moliyaviy instrumentlardan foydalanmaganini ko'rsatmoqda [8].

Raqobatdosh korxona nafaqat mahalliy bozorda, balki global miqyosda ham barqaror o'sish sur'atlarini namoyon eta oladi. Bunda korxonaning moliyaviy sog'lomligi, kreditga layoqatlilik darajasi, foyda ko'rsatkichlari, xarajatlarni optimallashtirish salohiyati, likvidlik va to'lovga layoqatli bo'lishi muhim mezon sifatida qaraladi. Xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ishlab chiqilgan Moody's, S&P yoki Fitch kabi reyting tizimlari ham aynan moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tashkilotlar va korxonalarni baholaydi. Shu bois, ichki moliyaviy menejmentni mustahkamlash korxonaning nafaqat bugungi, balki kelajagi uchun ham raqobatdosh strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bozordagi yuqori darajadagi raqobat — resurslar uchun kurash, narx siyosatidagi keskinlik, ilg'or texnologiyalarning jadal tatbiq etilishi, talabning beqarorligi hamda iste'molchilarning muqobil tanlov imkoniyatlarining kengayishi bilan xarakterlanadi. Bu esa korxonalarni an'anaviy moliyaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion moliyaviy vositalar (faktoring, forfeyting, lizing, muqobil investitsiya fondlari, IPO va boshqalar) orqali raqobat ustunligini ta'minlashga undamoqda.

Bugungi kunda ko'plab yetakchi ishlab chiqaruvchi va eksportyor korxonalar yuqori raqobat sharoitida moliyaviy strategiyalarning o'ziga xosligi va ularning amaliy samaradorligini inobatga olib harakat qilmoqda. Masalan, "Artel", "Uzkabel", "GM

Uzbekistan", "UzAuto Motors" singari yirik ishlab chiqaruvchilar moliyaviy ko'rsatkichlar asosida raqobat ustunligini ta'minlamoqda.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ham bank kreditlaridan foydalanish, grantlar va subsidiyalar, imtiyozli moliyaviy liniyalar orqali faoliyatni moliyalashtirish imkoniyatlari mavjud. Biroq, ushbu subyektlarning moliyaviy savodxonlik darajasi, risklarni tahlil qilish ko'nikmalari va strategik rejalashtirish salohiyati yetarli bo'lmagani uchun moliyaviy vositalardan to'liq foydalana olishmayapti. Bu esa ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Demak, korxona boshqaruvida moliyaviy vositalarni tanlash, qo'llash va ular asosida qarorlar qabul qilish kompetensiyasi bevosita raqobatdosh ustunlikni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu sababli, aynan korxona raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalarning o'rni, turlari, tanlash mezonlari va ularning amaliy natijalari bugungi kun iqtisodiyotida ustuvor ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

M. Porter o'zining ilmiy izlanishlarida raqobat ustunligini shakllantiruvchi omillarni tizimli asosda tahlil qiladi. Uning "qiymat zanjiri" (value chain) konsepsiyasi korxonalarga o'z faoliyat jarayonlarida qaysi bosqichlarda qiymat yaratilayotganini aniqlash, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, moliyaviy strategiyalarning raqobat ustunligini shakllantirishdagi o'rni — kapital tuzilmasini samarali boshqarish, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda resurslar taqsimotining optimal modelini ishlab chiqish orqali yoritiladi [1].

E. Brigham va J. Houston tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korxonalarning moliyaviy boshqaruviga oid asosiy tamoyillar atroflicha yoritilgan. Ushbu ilmiy izlanishda

moliyaviy vositalar — kreditlash, kapital tuzilmasi, dividend siyosati, risklarni diversifikatsiyalash hamda naqd pul oqimlarini boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlari modellashtirilgan [2].

C. Hill, G. Jones va M. Schilling tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlashda strategik rejalashtirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarni o'rganish, ichki resurslarni (shu jumladan moliyaviy) samarali yo'naltirish va raqobatchilar bilan taqqoslash orqali ustunlikka erishish usullari ko'rsatib o'tilgan [3].

A. Damodaraning ta'kidlashicha, moliyaviy vositalarning qiymatini aniqlash, ularning investitsion jozibadorligini baholash hamda risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilish masalalari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, real aktivlar va moliyaviy instrumentlarning baholash uslublari (NPV, IRR, DCF) orqali raqobatbardoshlikni moliyaviy jihatdan asoslash mumkinligi ko'rsatilgan [4].

D. Ro'ziyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning moliyaviy faoliyatiga xos bo'lgan jihatlar, ular duch keladigan moliyaviy cheklovlar, investitsion qarorlar qabul

qilishdagi muammolar hamda resurslarni taqsimlash mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilingan [5].

H. Normurodovning asarida moliyaviy rejalashtirish, budjetlashtirish, investitsiya tahlili, risklarni boshqarish, qarz va kapital bilan ishlashning zamonaviy texnologiyalari yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliq va kredit siyosatining korxonalarning moliyaviy faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri alohida tahlil etilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalarning ahamiyati, ularning amaliyotda qo'llanish darajasi va samaradorligi o'rganildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida korxonaning ichki tuzilmasi, funksional bo'linmalari hamda moliyaviy boshqaruv strategiyalari ko'rib chiqildi. Har bir moliyaviy vositaning korxona raqobatbardoshligiga ta'siri esa o'zaro aloqadorlik, funktsionallik va uzviylik tamoyillari asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Korxonaning raqobatbardoshligi ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar orqali tavsiflanadi. Masalan, A.A. Tompson va A.J. Striklend [7] korxonaning raqobatbardoshligini aniqlashda quyidagi jihatlarni e'tiborga olishni taklif qiladi:



1-rasm. Korxona raqobatbardoshligini shakllantiruvchi resurs omillari [7]

Bizning fikrimizcha, korxonaning moliyaviy, texnologik va ishlab chiqarish

resurslari uning raqobatbardoshligini to'liq ta'minlay olmaydi. Ushbu omillarning har biri

korxona faoliyatiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, mahsulot sifati raqobatchilar bilan taqqoslaganda yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Korxona zamonaviy va qimmat asbob-uskunalarini xarid qilgan bo'lsa-da, ushbu texnologiyalarni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarning mavjud emasligi yoki innovatsiyalarni joriy etish tajribasining yetishmasligi natijasida ushbu investitsiyalarning kutilgan samarasi ta'minlanmasligi mumkin.

Demak, mavjud resurslar va ularning uyg'unlashuvi muhim bo'lsa-da, ular korxonaning raqobatbardoshligini kafolatlamaydi. Bu borada hal qiluvchi omil sifatida inson kapitali, ya'ni raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar asosiy omil sifatida ajralib turadi.

Bundan tashqari, korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar nafaqat resurslar, balki tashkiliy omillarni ham o'z ichiga oladi. Bular jumlasiga strategik rejalashtirish, moslashuvchan tashkiliy tuzilma, xodimlarni rag'batlantirish tizimi, nazorat va muvofiqlashtirish mexanizmlari kiradi. Shunday qilib, korxona raqobatbardoshligini belgilovchi omillarni shartli ravishda ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin: resurs omillari va tashkiliy omillar.

Biroq ushbu omillarning har biri korxonaning raqobatbardoshligini oshirishi ham, kamaytirishi ham mumkin. Eng muhim jihati shundaki, har bir omil ortida inson omili – bevosita korxona faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning salohiyati va malakasi turadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotlarda raqobatbardoshlikni o'rganishda inson resurslari, ayniqsa xodimlarning o'rni yetarlicha e'tiborga olinmaydi. Aslida esa mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va xarajatlar darajasi bevosita ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan mutaxassislarning kasbiy malakasiga bog'liqdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy erkinlik berish, investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy vositalardan yetarli darajada va samarali foydalanmayapti. Bu esa ularning raqobatbardoshlik darajasini cheklab qo'ymoqda.

2023-yil yakunlariga ko'ra, Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, yirik va o'rta korxonalar orasida faqat 36,8 foizi strategik moliyaviy rejalashtirish tizimini yo'lga qo'ygan. Qolgan korxonalar moliyaviy boshqaruvda asosan qisqa muddatli qarorlar bilan cheklanmoqda. Ayniqsa, uzoq muddatli investitsion moliyalashtirish darajasi juda past – atigi 12,3 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa kapital tuzilmasining muvozanatsizligi, risklarga yuqori darajada ochiqlik va moliyaviy barqarorlik yetishmasligini ko'rsatadi [8].

Korxonalar orasida moliyaviy risklarni aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlariga ega bo'lganlar soni ham yetarli emas. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, faqat 29 foiz korxonada moliyaviy risklarni nazorat qilish va baholash tizimi mavjud. Bu esa ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarda raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy moliyaviy omillar inobatga olinmasligiga olib kelmoqda.

Moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish ham korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, kichik biznes subyektlarining qariyb 64 foizi moliyaviy vositalardan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmaga ega emasligini, shuningdek, moliyaviy maslahat va konsalting xizmatlariga ehtiyoj yuqoriligini bildirgan. Ayniqsa, lizing, forfeyting, kredit liniyalari, kafolatlash mexanizmlari hamda IPO kabi ilg'or moliyaviy vositalar amaliyotda keng qo'llanilmayotgani kuzatilmoqda.

Boshqa tomondan, eksportga yo'naltirilgan, yuqori rentabellikka ega va moliyaviy boshqaruvda tizimli yondashuvga ega korxonalarda raqobatbardoshlik darajasi ancha yuqori. Masalan, 2023-yil yakunlariga ko'ra eksport faoliyatini barqaror amalga oshirgan sanoat korxonalarida o'rtacha foydalilik (rentabellik) darajasi 23,4 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi o'rtasida bevosita va ijobiy korrelyatsiya mavjudligini yaqqol ifodalaydi.

Xalqaro tashkilotlar ham korxonalarning moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi bilan ularning raqobatbardoshligi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Jumladan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining (IMF) 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, O'zbekistonda korxona darajasida moliyaviy xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi atigi 9,8 foizni tashkil qilgan. Solishtirish uchun, bu ko'rsatkich Turkiyada 22,4 foiz, Polshada 18,6 foiz, Malayziyada esa 27,3 foizga teng bo'lgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda "kapitalga kirish imkoniyati" indikatorining 1 ballik maksimal bahodan 0,39 ballgacha pasaygani mamlakat moliyaviy infratuzilmasining hali to'laqonli va samarali ishlamayotganligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar korxonalar raqobatbardoshligini oshirish jarayonida moliyaviy vositalarning tutgan o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi. Moliyaviy resurslardan oqilona va strategik foydalanish korxonaning barqaror rivojlanishi, bozordagi ulushini saqlab qolishi hamda tashqi raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish, moliyaviy maslahat va konsalting xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy moliyaviy vositalarni amaliyotga

keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarish jarayoni bevosita ushbu faoliyat uchun mas'ul bo'lgan xodimlarning kasbiy malakasi va boshqaruv kompetensiyalariga bog'liqdir. Innovatsion imkoniyatlarning ochilishi ham ko'p hollarda korxona xodimlarining ijodiy salohiyati va tashabbuskorligiga tayanadi. Raqobat strategiyasini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etish va doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab borish bevosita inson resurslari — ya'ni korxona xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Strategik rejaga muvofiq ravishda marketing siyosatini shakllantirish, distribyutorlik tarmog'ini rivojlantirish, hamkorlik tizimlarini yo'lga qo'yish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati — bularning barchasi korxona xodimlari faoliyati va boshqaruv salohiyati bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, korxona obro'si (imidji) va tashqi muhitdagi qabul qilinishi ko'p jihatdan mijozlar bilan o'zaro aloqalarning qanday yuritilishiga, xizmat ko'rsatish madaniyatiga va xodimlarning professional yondashuviga bog'liqdir. Afsuski, amaliy va nazariy tadqiqotlarda bu omil ko'pincha e'tibordan chetda qoladi.

O'tkazilgan tahlillar asosida xodimlarning korxona faoliyatidagi o'ziga xos rolini ikki jihatdan aniqlash mumkin: birinchidan, kadrlar korxonaning muhim va zaruriy resursi sifatida namoyon bo'ladi; ikkinchidan esa, ular barcha raqobat omillarini harakatga keltiruvchi subyekt — ya'ni tashabbuskor va ijrochi kuch sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois, inson resurslari korxona raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Porter, M. E. (2008). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press.

2. Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2019). *Fundamentals of Financial Management (15th ed.)*. Cengage Learning.
3. Hill, C. W. L., Jones, G. R., & Schilling, M. A. (2014). *Strategic Management: Theory: An Integrated Approach*. Cengage Learning.
4. Damodaran, A. (2012). *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset*. Wiley.
5. Ro'ziyeva D.I. *Korxona iqtisodiyoti (O'quv qo'llanma)*. – T: "Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi", 2022. 268 b.
6. Normurodov, H. N. (2021). *Korxonada moliyaviy boshqaruv asoslari*. Samarqand: SamDU.
7. Томпсон А.А., Стрикленд А.Дж. *Стратегический менеджмент. Концепции и ситуации для анализа: пер. с англ.* – М.: Вильямс, 2003.
8. www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

